



1970-1990-YILLARDA O'ZBEKISTONDA PILLACHILIK SANOATINING RIVOJLANISHI

Urinov Islomjon Olimjon o'g'li

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti

“Tillar, ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy madaniyat”

kafedrasi o'qituvchisi

islomjonurinov469@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada 1970–1990-yillarda O'zbekistonda pillachilik sanoatining rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda mazkur davrda pillachilik tarmog'ining iqtisodiy ahamiyati, ishlab chiqarish hajmlarining o'sishi, qishloq xo'jaligi va sanoat o'rtasidagi integratsiya jarayonlari hamda davlat siyosatining ushbu sohaga ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, pillachilikda xomashyo bazasining kengayishi, ipak qurti yetishtirish texnologiyalari, mehnat resurslaridan foydalanish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalalari yoritiladi. Tadqiqot natijalari asosida pillachilik sanoatining rivojlanish bosqichlari va uning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni aniqlanadi.

Kalit so'zlar: pillachilik, ipak qurti, sanoat rivoji, O'zbekiston, qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish, texnologiya, xomashyo, iqtisodiyot, mehnat resurslari

Аннотация. В данной статье анализируются процессы развития шелководства в Узбекистане в 1970–1990-е годы. Рассматривается экономическое значение отрасли, рост объемов производства, процессы интеграции сельского хозяйства и промышленности, а также влияние государственной политики на развитие шелководства. Особое внимание уделяется расширению сырьевой базы, технологиям выращивания шелкопряда, использованию трудовых ресурсов и повышению



эффективности производства. На основе исследования определены этапы развития отрасли и ее роль в экономике страны.

Ключевые слова: шелководство, шелкопряд, развитие отрасли, Узбекистан, сельское хозяйство, производство, технологии, сырьевая база, экономика, трудовые ресурсы

Annotation. This article analyzes the development of sericulture in Uzbekistan during the period of 1970–1990. The study examines the economic importance of the sector, the growth of production volumes, the integration of agriculture and industry, and the impact of state policy on the development of sericulture. Particular attention is given to the expansion of the raw material base, silkworm breeding technologies, the use of labor resources, and the improvement of production efficiency. Based on the analysis, the stages of development of the industry and its role in the national economy are identified.

Keywords: sericulture, silkworm, industrial development, Uzbekistan, agriculture, production, technology, raw materials, economy, labor resources

Kirish. 1975 yilda O'zbekiston hissasiga paxta xomashyosi 62,5%, ipak tolasi 40,4 % , 95,4 foiz kenaf tsh-ri kelgan bo'lsa[1], 1977 yilda respublika yalpi ijtimoiy mahsuloti 1976 yilga nisbatan 4,9 foizga oshdi, rejaga nisbatan esa 3,8 foizga ko'p bajarildi.

Bu davrda SSSRda yetishtirilayotgan paxtaning 65 foizi, kenafning 100 foizi, ipak tolasi 60 foizi O'zbekiston hissasiga to'g'ri kelgan[2].

Asosiy qism. 1980-yillar o'rtalariga kelib O'zbekiston SSRda ipak sanoatini jadal sur'atlarda rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Buning asosiy maqsadi respublika hududida ipak matolari ishlab chiqarish markazini shakllantirishdan iborat edi. Shu munosabat bilan tabiiy ipakdan tayyorlanadigan matolar ishlab chiqarishni boshqa turdagi ipak mahsulotlariga nisbatan ustuvor yo'nalish sifatida rivojlantirish ko'zda tutilgan.



Pilla xomashyosini respublika hududidan tashqariga olib chiqish iqtisodiy jihatdan samarali emasligi sababli, pillani qayta ishlash sanoati quvvatlarini kengaytirish zarurligi ta'kidlangan. Shu bilan birga, pillani qayta ishlash jarayonini jadallashtirish orqali ipak sanoatining ishlab chiqarish imkoniyatlarini oshirish muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Ipak sanoatini rivojlantirish xomashyo bazasini kengaytirish hamda ishlab chiqarish jarayoniga ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlarini joriy etish orqali amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Istiqbolda respublika ipak sanoati asosan Farg'ona iqtisodiy hududida markazlashishi kutilgan.

Pillani qayta ishlashni samarali tashkil etish maqsadida mavjud korxonalarini rekonstruksiya qilish va texnik jihatdan qayta jihozlash, shuningdek yangi ipak yig'irish fabrikalarini barpo etish zarurligi qayd etilgan. Pilla yetishtiriladigan hududlarga yaqin joylarda ishlab chiqarish korxonalarini joylashtirish maqsadga muvofiq deb topilgan. Shu bois Qoraqalpog'iston ASSR, Navoiy, Surxondaryo hamda Sirdaryo viloyatlarida pillani qayta ishlash korxonalarini tashkil etish rejalashtirilgan.

Sovet davrida O'zbekiston SSR iqtisodiyotida ko'p tarmoqli sanoat tizimi shakllangan bo'lib, u umumittifoq sanoat mahsulotining taxminan 2,7 foizini ta'minlagan. Respublika ittifoq miqyosidagi hududiy mehnat taqsimotida muhim o'rin egallab, mamlakat bo'yicha paxta xomashyosi, ipak xomashyosi, qorako'l terilari, shuningdek kanop, sabzavot va mevalar ishlab chiqarishda yetakchi hududlardan biri sifatida namoyon bo'lgan.

Natija va muhokamalar. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1985 yilda respublika butun ittifoqda yetishtirilgan paxta xomashyosining 61,5 foizini hamda ipak xomashyosining 50 foizdan ortig'ini ishlab chiqargan[3]. Shu bilan birga, O'zbekiston SSR hissasiga ittifoq miqyosida ishlab chiqarilgan yig'iruv mashinalarining 38,6 foizi to'g'ri kelgan. Aholi jon boshiga hisoblaganda esa respublikada ishlab chiqarilgan ipak matolari miqdori o'rtacha ittifoq ko'rsatkichidan 1,3 barobar yuqori bo'lgan[4].



Bu natijalar respublika sanoat salohiyatining tez sur'atlar bilan rivojlanib borganini bilan izohlanadi. Natijada sanoat tarmog'i respublika yalpi ijtimoiy mahsulotining yarmidan ortig'ini (57,7 foizini) tashkil etgan. Shuningdek, asosiy ishlab chiqarish fondlarining 35,1 foizi va moddiy ishlab chiqarish sohasida band aholining 66,3 foizi aynan sanoat tarmog'iga to'g'ri kelgan[5].

1970–1985 yillar davomida respublikada sanoat ishlab chiqarish hajmi 2,4 barobarga oshgan bo'lsa, ushbu sohada band bo'lgan ishchilar soni 1,8 barobardan ko'proqqa ortgan. Bu holat O'zbekiston iqtisodiyotida sanoat tarmog'ining ahamiyati tobora ortib borganini ko'rsatadi.

1981 yilga oid arxiv ma'lumotlariga ko'ra, Qashqadaryo viloyatida ipak qurti parvarishi jarayonida ommaviy epizootik holatlar qayd etilmagan. Manbada ipak qurtida uchrashi mumkin bo'lgan asosiy kasallik turlari – pebrina, muskardina, gnilets va boshqalar bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan bo'lsa-da, umumiy xulosa sifatida “kasalliklar aniqlanmagan” deb qayd etilgan[6]. Bu holat mazkur davrda pillachilikda sanitariya-veterinariya nazorati hamda ipak qurtini parvarish qilish texnologiyasi talablariga ma'lum darajada rioya etilganini ko'rsatadi.

1981 yilda Qashqadaryo viloyatida ipakchilik tarmog'ini rivojlantirish va mutaxassislar malakasini oshirish maqsadida bir qator o'quv-tashkiliy tadbirlar amalga oshirilgan. Jumladan, direktorlar, katta va oddiy agronomlar, laboratoriya hamda kokonosushilka mudirlari, shuningdek pillani qabul qilish va dastlabki qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi agronomlar uchun seminarlar Qarshi shahrida, viloyat ipakchilik boshqarmasi huzurida tashkil etilgan. Ushbu seminarlarda Kitob, Shahrisabz, Yakkabog', Chiroqchi va Nishon tumanlaridan kelgan mutaxassislar ishtirok etgan.

Shuningdek, ayrim tumanlar uchun o'quv seminarlari Shahrisabz shahridagi bosh kokonosushilka bazasida o'tkazilib, unda ipakchilik sohasidagi ilmiy-tadqiqot muassasalari mutaxassislari va viloyat boshqarmasi xodimlari ishtirok etgan. Bosh kokonosushilkalarda faoliyat yurituvchi mexanik va



elektriklar uchun ham alohida seminarlar tashkil qilinib, ularda ishlab chiqarish jarayonidagi texnik va texnologik masalalar muhokama qilingan.

Kolxoz va sovxozlarda faoliyat yurituvchi mutaxassislar, ipakchilik va tutchilik bo'yicha agrotexnik-brigadirlar hamda inkubator mutaxassislari uchun o'quv mashg'ulotlari har bir bosh kokonosushilka huzurida 2–3 guruhga bo'lingan holda tashkil etilgan. Bundan tashqari, pillachilik zvenolariga gusenitsa parvarishi agrotexnikasi bo'yicha amaliy tushuntirish ishlari to'g'ridan-to'g'ri xo'jaliklarda kokonosushilka mutaxassislari tomonidan olib borilgan[7].

Mazkur tadbirlar pillachilik sohasidagi mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, ishlab chiqarish jarayonini ilmiy-agrotexnik talablar asosida tashkil etish hamda tarmoqda mehnat samaradorligini yuksaltirishga xizmat qilgan.

1980-yillar oxirida SSSRda qishloq xo'jaligi tarmoqlarini modernizatsiya qilish va ularda fan-texnika yutuqlarini joriy etish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu jarayon ipakchilik tarmog'ini ham qamrab olgan bo'lib, ilmiy tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga tatbiq etish, yangi gibridlardan foydalanish hamda intensiv agrotexnologiyalarni joriy qilish orqali pillachilik samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratildi. 1987 yil uchun ishlab chiqilgan rejalarda pillani birlamchi qayta ishlash va saqlashning yangi texnologiyalarini joriy etish, tutchilikni ilmiy asosda rivojlantirish va biologik himoya vositalarini keng qo'llash kabi chora-tadbirlar nazarda tutilgan[8].

Xulosa. Respublika miqyosida pillani birlamchi qayta ishlash va saqlash texnologiyalarini joriy etish bo'yicha 2500 tonna hajmdagi ishlar rejalashtirilgan bo'lib, Qashqadaryo viloyati uchun 100 tonna miqdori belgilangan. Shuningdek, viloyatda tut urug'ini ekishdan oldin ishlov berish 250 ming dona, intensiv usulda tut ko'chatlari yetishtirish 15 ming dona hamda pilla qurti kasalliklariga qarshi "Berak" preparatini 15 ming quti miqdorida



qo'llash rejalashtirilgan. Bu ma'lumotlar sovet davrida ipakchilik tarmog'i faqat qishloq xo'jaligi sohasi sifatida emas, balki ilmiy-texnik taraqqiyot bilan uzviy bog'liq kompleks agrosanoat tizimi sifatida qaralganini ko'rsatadi[9].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Народное хозяйство УзССР в 1975 г. Статистический ежегодник. –Тошкент: 1976, –С. 25.
2. Искандеров И. И. Новый этап социально-экономического прогресса страны Советов // Общественные науки в Узбекистане. — 1978. — № 11. — С. 7.
3. Узбекистан за годы XI пятилетки (1981—1985 гг.): Стат. сб.- Ташкент : Изд-во ЦК КП Узбекистана, 1986. –С. 36.
4. Народное хозяйство СССР в 1985 г. –М., 1986. –С. 135, 137—139; Народное хозяйство УзССР в 1985 г. –Ташкент, 1986. –С. 54, 154.
5. Юсуупова Г. Территориальная структура промышленности УзССР и вопросы её совершенствования// Общественные науки в Узбекистане. — 1988. — № 1. — С. 7-8. (7-11).
6. QVDA, S-392-fond, 1-ro'yxat, 122-ish,54-varaq.
7. QVDA. S-392-fond, 1- ro'yxat, 122-ish, 115-116-varaqlar
8. QVDA. F. S-392, ro'yxat. 1, ish 176. 2-varaq.
9. QVDA. S-392-fond, 1-ro'yxat, 176-ish, 3-yig'majild, 4-varaq.